



The history of state formation and governance systems in Ancient Khwarazm

Khamdam MATYAKUBOV¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

Kozaliqir,
Khorezm,
state system,
military-administrative
center,
Zoroastrianism,
tribal unions,
defense system,
Achaemenid Empire,
Margiana,
Bactria,
archaeological studies.

ABSTRACT

This article examines the initial state system that formed in the Khorezm oasis during the 7th-6th centuries BC, based on social, economic, and military factors. Drawing on information about the Kuzaliqir culture, it is argued that during this period, military-administrative and religious centers were established in Khorezm, along with the development of defense systems and craftsmanship. The process of transitioning from tribal unions to state structures in Khorezm is analyzed in comparison with similar processes in Margiana and Bactria.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1-pp21-26>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qadimgi Xorazmda davlatchilikning shakllanishi va boshqaruv tizimi tarixi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Ko'zaliqir,
Xorazm, davlatchilik tizimi,
harbiy-ma'muriy markaz,
zardushtiylik,
qabilalar uyushmasi,
mudofaa tizimi,
Ahamoniylar davlati,
Marg'iyona,
Baqtriya,
arxeologik tadqiqotlar.

Ushbu maqolada miloddan avvalgi VII–VI asrlarda Xorazm vohasida shakllangan dastlabki davlatchilik tizimi ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy omillarga asoslanganligi tadqiq qilinadi. Ko'zaliqir madaniyatiga oid ma'lumotlar asosida bu davrda Xorazmda harbiy-ma'muriy va ibodat markazlari tashkil topgani, mudofaa tizimlari va hunarmandchilik sohasining rivojlangani haqida fikr yuritiladi. Marg'iyona va Baqtriya'dagi o'xshash jarayonlar bilan qiyoslanib, Xorazmda ham qabilalar uyushmasidan davlat tuzilmalariga o'tish jarayoni tahlil qilinadi.

¹ PhD, Associate Professor, Urgench State University. E-mail: hamdamtarix@gmail.com

Формирование государственности и история системы управления в Древнем Хорезме

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Козалыкир,
Хорезм,
государственная система,
военно-
административный центр,
зороастризм,
племенные союзы,
оборонная система,
Ахеменидская империя,
Маргиана,
Бактрия,
археологические
исследования.

В данной статье исследуется формирование ранней государственной системы в Хорезмском оазисе в VII–VI вв. до н.э., основанной на социальных, экономических и военных факторах. На основе данных о культуре Козалыкир рассматривается создание в этот период военно-административных и культовых центров в Хорезме, развитие оборонных систем и ремесел. Сравнивая с аналогичными процессами в Маргиане и Бактрии, анализируется переход от племенных союзов к государственным структурам.

KIRISH

Xorazmning ilk davlatchilik tizimi tarixi miloddan avvalgi VII–VI asrlarga oid bo'lib, bu davrda vohada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va siyosiy omillar, shuningdek, hududiy jihatdan alohida tumanlarda rivojlangan davlat tuzilmalari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada Ko'zaliqir madaniyatining arxeologik tadqiqotlari asosida Xorazmda ilk harbiy-ma'muriy va ibodat markazlari tashkil topgani, mudofaa tizimlarining rivojlanishi, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligining taraqqiy etganligi haqida so'z yuritiladi. Mazkur davrda qabilalar uyushmasidan davlat tuzilmalariga o'tish jarayonlari Marg'iyona va Baqtriyadagi o'xshash jarayonlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'zaliqir madaniyatiga oid ilmiy tadqiqotlar asosan arxeologik qazishmalar va yozma manbalarga tayanadi. Tadqiqotchilar Ko'zaliqir harbiy-ma'muriy markazi va uning ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'rganishda, ichki qal'alar va mudofaa tizimlari, shuningdek, hunarmandchilik markazlari tahliliga alohida e'tibor qaratgan. Sh.T. Adilov va boshqa olimlarning izlanishlari asosida Ko'zaliqir madaniyati davrida Xorazmda harbiy xavfsizlik, mudofaa tizimi va hunarmandchilik taraqqiyoti bilan bog'liq yangi yondashuvlar ilgari surildi.

METODOLOGIK ASOSLAR

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar va qiyosiy tarixiy tahlillarga tayanadi. Arxeologik qazishmalar natijasida Ko'zaliqir madaniyatiga oid moddiy madaniyat yodgorliklari, jumladan, ichki qal'alar, mudofaa inshootlari, ibodatxonalar va hunarmandchilik ustaxonalari aniqlangan. Ushbu topilmalar asosida qabilalar uyushmasidan davlat tuzilmalariga o'tish jarayonlari tadqiq etiladi.

TAHLIL

Tadqiqotchining qarashlari bo'yicha Ko'zaliqir harbiy – ma'muriy va ibodat markazi ko'rinishiga ega. Shu sababdan ichki qal'ada joylashgan saroyning keng hovlisida o'rnatilgan taxtida marosimlar chog'ida saklar podshosi o'tirgan ekan, hovlining ikki yon tomonida xom g'ishtdan terilgan supalarda qabila zodagonlari joylashgan, taxtning ro'parasida, hovlining markazida baland poydevorga ega ibodat otashkadasida olov yonib turgan kabi xulosalarga kelingan [1, c. 27].

Mazkur dissertasiya muallifi ham o'z ishlarida, mil.avv. VII–VI asrlar chegarasi davrdagi Xorazmda davlatchilik tizimining shakllanish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy-siyosiy omillarga asoslanganligi g'oyasi ma'qullanib, lekin bir oz farqli yondashuv tarzda vohadagi ilk davlatchilik tuzilmalari alohida voha-tumanlarida (Ko'zaliqir-g'arbda, Hazarasp-janubda) rivoj topishi, ular hududiy jihatdan mayda davlatchilik tashkilotini o'zida aks ettirishi, Markaziy Osiyoning barcha viloyatlarida ilk davlatchilik alohida voha-tumanlar asosida shakllanganligi va ushbu umummintaqaviy xususiyat Xorazm tarixiga ham mansub bo'lgan deb ta'kidlangan edi [2, 6. 202-203].

Bu yondashuvga, o'tgan asrning 90-yillari – XXI asr boshlarida mintaqa miqyosida ilk davlatchilik tarixini qayta baholash, yangi ma'lumotlar asosida ko'rib chiqish va davlatchilik tizimining arxeologik belgilarini ishlab chiqish natijalari ko'p jihatdan ta'sir qilgan.

O'sha davrda yangi ma'lumotlarga asoslangan holda, Marg'iyona va Baqtriyada bronza davriga mansub ilk davlatlar hududiy jihatdan alohida ziroatkorlik voha-tumanlarda yuzaga kelishiga oid masala ilgari surildi. Janubiy O'zbekistondagi Jarqo'tonda ichki qal'a, saroy va ibodatxona topildi [3]. Bunday me'morchilik inshootlari Shimoliy Afg'oniston va Quyi Murg'ob vohasida ham aniqlandi. (Dashtli, Gonur) [4. C. 102–103]. O'rganilgan arxeologik manbalar ziroatkorlar jamoalarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvidan dalolat berdi. Jamiyatda ishlab chiqarishni tashkillashtirish, jamoadagi urf-odatlarini bajarish, o'zaro aloqalarni tartibga solish va nazorat qilish kabi boshqaruv vazifalari bilan bog'langan yo'lbo'shchilar ajralib chiqishi xususida fikrlar bildirildi [5, 6. 23-24]. Hattoki Quyi Murg'ob vohasida qadimgi Sharq tipidagi Marg'ush kabi podshohlikning rivojlanishi haqida masala ro'yyobga chiqarildi [6, 272 c]. Shuningdek, bronza davridan temir asriga o'tish bosqichida hamda bevosita temir davri davlatchilik tarixi masalalari yoritildi [7, B. 3-11].

Yangi ma'lumotlarga asoslanib, mil.avv. VII asrning oxirida Xorazmda davlatchilik kelib chiqish harbiy iqtisodiy va ijtimoiy belgilari ichida quyidagilar ajratildi:

- harbiy va ibodat markazi, umumiy mudofaa tizimi, ichki qal'a va saroyning mavjudligi;
- tashqi bosqinlar xavf-xatari paytida jamoalar a'zolari va ularning asosiy boyligi uchun panajoy, harbiy istehkom;
- hunarmandchilik sohasi, temir va bronzaga ishlov berish, turli metall buyumlar va qurol-yarog'larni ishlab chiqarish, kulolchilik, binokorlik va yuqori mahsuldor chorvachilikning rivojlanishi;
- jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi, chorvadorlar, hunarmandlar, binokorlar, o'rtaxol va oddiy jamoa vakillari, urug' boshliqlari, qabila yo'lbo'shchilari, kohinlar, jangchilar [8, B.188].

Ko'zaliqir misolida, mil. avv. VI asrning birinchi yarmiga oid Xorazmning ijtimoiy munosabatlar tarixida murakkab jarayonlar yuzaga kelganligi (ichki qal'ada qarorgoh – saroy va e'tiqod markazining bunyod etilishi) kuzatildi. Xorazm vohasida avval ma'lum bo'lmagan harbiy istehkom, mudofaa tizim yirik imoratlarning bunyod etilishi, qurilish va arxitektura sohasida paxsa va xom g'isht ishlatilishning boshlanishi, amaliy binokorlik bilimlari va usullarining yoyilishi, kulolchilik charxi va temir qurollaridan foydalanishni ham Marg'iyona Baqtriya aholisining migrasiyalari natijasi sifatida tan olindi.

Ko'zaliqir madaniyati davrida taraqqiy etgan davlatchilik tuzilishidagi boshqaruv dastlab urug'-qabila tuzumining ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlari va e'tiqodlar an'analariga asoslanib, jamoalarning hayotiy zarur manfaatlarini ijtimoiy-iqtisodiy

hududiy va harbiy sohalarda amalga oshirish kabi vazifalar bilan belgilangan. Ammo oldingi davrlarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va tashqi aloqalarning jadal rivojlanishi oqibatida boshqaruv funksiyalari kengayib borib, murakkablashgan [9, c. 127-128].

Tadqiqotchilarning yozishicha mil. avv. 545–539-yillar orasida fors shohi Kir II Marg'iyona, Xorazm, Sug'd va Baqtriyani zabt etib, Ahamoniylar davlatining hududiy chegaralari Sirdaryo havzasi va Hindistonning shimoli-g'arbigacha etgan [10, c. 104]. Lekin Kaspiy va Orol dengizlari o'rtasidagi dashtlarda yashagan sak-massagetlar forslarga bo'ysunmagan. Mil.avv. 530-yilda Kir II ularga qarshi muvaffaqiyatsiz yurish qilgan.

So'nggi bronza davriga oid ikkinchi bosqichda taxminan, XV–X asrlarda Markaziy Osiyo, Qozog'iston hududlarida dasht chorvadorlarning keng yoyilishi natijasida Orolbo'yida dehqonchilik ko'nikmalariga ega o'troq chorvadorlar madaniyati taraqqiy topib, ularning ijtimoiy tuzumida urug'doshlik an'analari va urf-odatlar etakchi o'rin egallagan.

Mil. avv. IX–VIII asrlarni o'z ichiga olgan uchinchi davrda "Avesto" ma'lumotlari bo'yicha mintaqaning janubiy yurtlarida "Kavi-podshohlar" hukmronligi chog'ida, Sharqiy Orolbo'yidagi Shimoliy Tagisken madaniyatining mazmun-mohiyatiga ko'ra, chorvadorlar jamoalarida harbiy yo'l boshchilar ajralib chiqishgan va dastlabki qabilaviy uyushmalari shakllana boshlagan.

Ikki bosqichdan iborat bo'lgan to'rtinchi davrida, oldin VII asrda, Xorazm vohasida saklar – xorazmliklar va Sharqiy Orolbo'yidagi saklar jamoalari alohida qabilalarning harbiy uyushmalariga birlashgan, o'z manzilgohlarini himoya qilish va tashqi yurishlarni amalga oshirish maqsadida qurol-yarog'lar (nayza, xanjar, bolta, o'q-yoy, katta pichoqlar) ishlab chiqilgan miqdori ko'paygan, jamiyatda harbiy funksiyalar hamda harbiy sardorlar va jangchilarning obro'si ortib borgan.

NATIJALAR

Mil.avv. VII asrning oxiri – VI asr o'rtalari davomida Ko'zaliqir madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalgi tarixiy bosqichlarga nisbatan Xorazmda deyarli to'la yangilik bo'lib, saklar – xorazmliklar unga moslasha borishgan.

Ko'zaliqir qal'asi qabilalar uyushmasining nafaqat siyosiy va ibodat markaziga, balki tashqi hujum, harbiy xavf-xatari paytlarida tevarak chorvadorlar aholi va ularning asosiy boyligi chorva uchun boshpanaga aylangan. Harbiy istehkom, mudofaa inshoot kabi tushunchalari bilan bog'liq holda, tadqiqotchilar "Xorazm" toponimining ma'nosini "hu-warazam" shaklda "chorva uchun yaxshi istehkomlarga ega o'lka; mustahkamlangan manzilgohlari mavjud zamin" sifatida izohlab berishadi, bu borada Xorazm atamasiga tegishli "Avesto" dan ma'lum bo'lgan "wara" – istehkom, mudofaa inshoot- qal'a va "zam" – o'lka, er kabi so'zlar katta ahamiyat kasb etgan [11, c. 28-29].

Shuni ta'kidlash joizki, Ko'zaliqir qal'asidan ilgari davrda, mudofaa devorlari bilan o'rab olingan va ichki qal'a qarorgohiga ega yirik markazlar Baqtriya va Sug'd hududlarida bunyod etilgan. Masalan, Baqtriyada Qiziltepa, Oltindilyor va Otchopar [12, c. 85-86], Sug'dagi Uzunqir, Erqo'rg'on va Ko'ktepa [13, B.32-33] shunday katta harbiy istehkomlarni tashkil etib, ular dehqonchilik vohalarida yashagan aholi va chorva uchun bekinadigan joy, harbiy bosqinlardan himoyalaniish imkoniga ega bo'lishgan.

Ko'zaliqirning ichki qal'asida qabilalar uyushmasi sardorining saroy-qarorgohi va qishloq xo'jalik mahsulotlari zahiralani saqlanishiga mo'ljallangan xumlardan iborat omborxonalar va don o'ralari aniqlangan. Hamda qal'ada temir eritish va temirga ishlov berish ustaxonaning qoldiqlari topilgan [14, c.155-156].

Ko'zaliqir moddiy madaniyati tarkibida saklarga xos qo'lda ishlangan sopol idishlar, bronza o'q uchlar va ot anjomlari mavjud, lekin asosiy belgilarga ko'ra (arxitektura, g'ishtdan bunyod etilgan katta binolar, mudofaa tizimi, kulolchilik charxida ishlangan sopol idishlar, temirga ishlov berish) va zardushtiylik dafn marosimlarining yoyilishi janubiy sivilizasiyalarning an'alarining keng tarqalishidan dalolat beradi.

Ko'zaliqir vohasida, Amudaryoning Dovdon o'zani bo'ylab Quysisoy, Yassiqir kabi o'troq chorvadorlarning manzilgohlari joylashgan. Janubiy Xorazmdagi Xazarasp vohasida bevosita Amudaryo o'zaniga yaqin xududda yashagan aholi dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishgan.

Bundan Xumbuztepa, Qaratosh va Toshsaqa yodgorliklarda qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar dalolat beradi [15, № 1]. Shuningdek, O'rta Amudaryoning so'l sohilida Ko'zaliqir madaniyatiga oid Qo'shqal'aning kashf etilishi tufayli, o'z paytida qadimgi Xorazmning janubiy chegaralari xususida masala ilgari surilgan edi [16, c. 40-41]. Bunday yondashuv o'z tarafdorlarini topib, Sh.T.Adilovning maqolasida, mil.avv.VI asrda G'arbiy Sug'd-Buxoro vohasi erlarini o'zlashtirilishi jarayonlari to'g'ridan-to'g'ri xorazmliklarning migrasiyasi sifatida faraz qilingan [17, c. 124-125].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar, mil.avv. VI asrning birinchi yarmida Xorazmning aholi o'troq chorvadorlar va ziroatkorlarga bo'linishi, ularning hududiy joylashish doirasining kengayib borishi, dehqonchilik uy-qo'rg'onlari va qal'alarning paydo bo'lishi va hunarmandchilikning yangi asoslarda rivojlanishini ko'rsatib beradi.

XULOSA

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, bunday tarixiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida Xorazmda hukm surgan yo'lboshchilarning vazifalari ham o'zgargan. Birinchidan, Xorazm aholisi o'z mamlakatining turli qismlarida (Sariqamishbo'yi Amudaryoning qadimiy o'zanlari havzasi, Hazarasp va Qo'shqal'a vohalarida) joylashganligi, ma'muriy-hududiy boshqaruvning zaruratini vujudga keltirgan. Ilk yozma manbalarda "Xorazm" toponimi "mamlakat" tushunchasi bilan bog'liq holda yoritilib, "Avesto" da "xvarizam", qadimgi fors tilida "huvarazmis" deb atalgan [18, c. 21]. Shu mamlakat aholining etnonimi qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida "xorasmiylar" sifatida tilga olingan.

Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv tizimida tashkillashtirish, amalga oshirish, ishlab chiqish va nazorat kabi vazifalar takomillashib, yangi ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarning paydo bo'lganligi bilan belgilangan.

Mil.avv. VI asrning birinchi yarmidagi Xorazmda ilgari (mil.avv. VII asrda) rivojlangan qabilalar uyushmasiga nisbatan davlat birlashmasining yangi tipi-podshohlik shakllana boshlagan. Ushbu jarayonning rivojlanishiga turtki bo'luvchi ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy sabablar qatorida, umumiy hudud, etnos va til, umumiy moddiy madaniyat va din-zardushtiylik birlashtiruvchi omillar sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Mil. avv. 540-yilda fors shohi Kir II tomonidan boshlangan va mil. avv. 519-yilda Doro I hukmronligi davrida yakunlangan yurishlar natijasida Markaziy Osiyoning o'troq dehqon aholisi va chorvador saklar Ahamoniylar davlati tarkibiga kirib, muayyan harbiy-ma'muriy birliklar-satrapiyalarni tashkil etishgan. Xorazm Parfiya, Areyya va Sug'd bilan birgalikda 16-satraplikda birlashtirilib, belgilangan miqdorda kumush soliqdan tashqari, chorva qishloq xo'jalik va hunarmandchilik mahsulotlari shaklda fors davlatiga qo'shimcha o'lpon to'lashga majbur bo'lgan.

Markaziy Osiyo hududlari qadimgi forslar tomonidan bosib olinishi oqibatida, mintaqaning qadimiy mamlakatlarida uzoq vaqt davomida mahalliy davlatchilik an'alarining rivojlanishi to'xtab qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ягодин В. Н. Низовья Амударьи. С. 27.
2. Матякубов Х. Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври... Б. 202-203.
3. Аскарлов А. А, Ширинов Т. Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии-Самарканд: Институт археологии АН РУз, 1993. – 162 с.; Хуфф Д., Шайдуллаев Ш. Б. Жарқўтон 2000 // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2000 йил. – Самарқанд, 2002. – Б. 23-25.
4. Сарияниди В. И. Древности страны Маргуш. – Ашхабад: Ўлим, 1990. – С. 102-103.
5. Шайдуллаев Ш. Илк давлатларнинг археологик белгилари // O'zbekiston tarixi, 2002. № 3. – Б. 5.; o'sha muallif. Ўзбекистон ҳудудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши босқичлари: Тарих фан. докт.. дисс.... автореф. – Самарқанд: ЎзФА Археология институти, 2009. – Б. 23-24.
6. Сарияниди В.И. Маргуш. Древносточное царство в старой дельте реки Мургаб. – Ашгабат, 2002. – 272 с.
7. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда. – Ташкент: Изд. Им. А. Кадири, 2002. – 255 с.; Матбобоев Б. Қадимги Фарғонада илк давлатчилик илдизлари // O'zbekiston tarixi, 2002. № 1. – Б. 3-11.
8. Матякубов Х. Х. Хоразм воҳаси бронза асри... Б. 188
9. Мамбетуллаев М. Социально-экономические и политические факторы возникновения и развития городов Хорезма эпохи античности // ИМКУ. – Ташкент, 2002. Вып. 33. – С. 127-128.
10. Дандамаев М. А., Луконин В. Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: “Наука”, 1980. – С. 104.
11. Хромов А. Л. Хорезм в древнеиранских и среднеиранских письменных источниках // Хорезм и Мухаммад ал-Хорезми в мировой истории и культуре. – Душанбе: “Дониш”, 1983. – С. 28-29.
12. Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. – Ашхабад, 2003. – С. 85-86.
13. Хасанов М. Илк темир ва антик даврда Суғд маданияти: Тарих фан. докт. (DSc) дисс... автореф. – Самарқанд: Миллий археология маркази, 2021. – Б. 32-33.
14. Вишневская О. А., Рапопорт Ю. А. Городище Кюзели-гыр... С.155-156.
15. Баратов С. Р. Новые данные по археологии Южного Хорезма // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2013. № 1.
16. Воробьева М. Г. Проблема «Большого Хорезма» археология // Этнография и археология Средней Азии. – М.: “Наука”, 1979. – С. 40-41.
17. Адылов Ш. Т. Западный Согд в VI в. до.н.э. – IV в.н.э. (очерк по политической и этнической истории региона) // ИМКУ. – Ташкент, 2024. Вып 44. – С. 124-125.
18. Оранский И. М. Иранские языки в историческом освещении. – М.: “Наука”, 1979. – С. 21.